

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIK DAVRIDAN KEYIN TURIZM SALOHIYATINING O'SIB BORISHI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix.
fakulteti 2-bosqich talabasi
Sharipova Durdonha Kamoldin qizi*

Anatatsiya: ushu maqolada Mustaqillik davridan so'ng Turizm sohasiga qaratilgan etibor, O'zbekistonning jahon turizm mintaqasidagi o'rni, hududimizdagi turistik salohiyatga ega maskanlar, Yangi O'zbekiston rejasida turizmning o'rni nechog'lik darajada ahamiyatga molikligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, xizmat ko'rsatish, servis, rekreatsiya, turizm klasteri, sammit, kompleks, strategiya

Kirish. Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berildi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy–huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Bugungi kunda jahon xo'jaligida noishlab chiqarish tarmoqlarining hissasi muttasil oshib bormoqda. Fikrimiz isboti sifatida rivojlangan g'arb davlatlarida yalpi milliy mahsulot hajmining moddiy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining oshib ketganligini keltirishimiz mumkin. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi keng ko'lamiga ega bo'lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o'rni tutmoqda. Shuning uchun so'ngi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda .

Asosiy qism. Bu esa xizmatlar bozorida yangi istiqbolli xizmat turlarining ya'ni rekreatsiya va turizm xizmatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda. Samarqand shahrida 2014 yil 2-oktabrda BMT Jahon Sayyohlik Tashkiloti Ijroya Kengashi 99-sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiyada jahonning 100 ga yaqin mamlakatlardan delegatlar ishtirok etishdi. Mamlakatimiz Birinchi prezidenti Islom Karimov sessiyaning ochilish marosimida nutq so'zлади. O'zbekiston hududida 7 mingdan ortiq tarixiy yodigorliklar mavjud bo'lib ularning aksariyati YUNEKO ning Butunjahon merosi ro'yxatga kiritilgan. Sharq durdonalari bo'gan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon va Termiz shaharlari shular jumlasidandir. 2013 yilda mamlakatimizga dunyoning 70 dan ortiq davatlardan 2 milliondan ortiq turistlar tashrif buyurishdi. Bu sohada mamlakatimiz boyicha 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda¹

¹ I.S.Tuxliyev,R.Hayitboyev,B.Sh.Safarov,G.R.Tursunov „ Turizm asoslari ”.T.2014

O'zbekiston Respublikasi ham jahondagi yetakchi mamlakatlarining rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib bormoqda. Ushbu milliy model birinchi navbatda ichki imkoniyatlarni, o'zbek xalqining mentalitetini va jahon andozalariga mos keladigan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligini yoddan chiqarmaslik kerak.

O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu haqda, masalan, Respublika hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ortiq qadimiylar me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorliklarning umumiyligi soni bo'yicha jahondagi yetakchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingan va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingan². Xalqaro turizm sohasi respublikamiz iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lgan valuta tushumini ta'minlaydi. Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda dam olish va madaniy hordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik obektlarning ham mayjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish muammolarini unga innovatsion yondashuvlarni qo'llash nuqtai nazaridan o'rghanish har qanday davlatda va turli davrlarda, ayniqsa inqiroz davrida dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib turizm sohasi ham barqaror rivojlamoqda desak mubolaga bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari Butunjahon turizm tashkiloti bosh assambleyasining Samarqandda o'tgan 25-sessiyasida joriy yilda sayyoqlikni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyada zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilishini ma'lum qildi. Shuningdek, yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan yangi avtomobil va temir yo'llar qurilishi, aviatransport parki 2 barobar kengaytirilishi, aviaqatnovlar to'rt barobar oshirilishi, katta shahar va sayyoqlar ko'p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasterlari tashkil etilishi ta'kidlandi³. Mamalakatimiz ham bundan mustasno emas, ayniqsa, barqaror rivojlanish sharoitida turizm sohasi, ma'lumki, dunyoda eng faol rivojlanayotgan va tubdan o'zgarib borayotgan soha hisoblanadi. Shunga ko'ra, turizm salohiyatidan foydalanish iqtisodiyotdagi inqiroz hodisalari sharoitida unga yangicha yondashuvlarni qo'llash bilan ham samarali bo'lishi mumkin.

² Turizm istiqbollari. // O'zbekiston iqtisodiy ahborotnomasi. № 1. 2014. 11.b

³ Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Эштоев А. Рақобатдош кадрлар сайдхлик ривожи учун нега зарур “Янги Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газетаси. 2023 йил 14 ноябрь, 236-сон Б.5

Pandemiyadan oldingi davrda global iqtisodiyot uchun turizm sohasi eng katta daromadli tarmoqlardan biri bo'lib hisoblanar edi. Turizmning yuqori sur'atlarda rivojlanishi XX fenomeni deb atalgan bo'lsa, XXI asrda turizm mintaqaviy, milliy va jahon miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotga salmoqli hissa qo'shmoqda, eksportdan daromad keltirmoqda va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, turizm sektori iqtisodiyotning inqirozga moyil segmentlaridan biri bo'lib, bu COVID-19 koronavirus pandemiyasi paydo bo'lishi bilan tasdiqlangan. Turli inqiroz hodisalarining jahon va mahalliy amaliyoti shuni ko'rsatadiki, har qanday inqirozning ta'siri mutanosib ravishda mamlakatlar iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida seziladi, ammo turizmda emas, balki pandemiya paydo bo'lishi bilan uning salbiy ta'siri natijasida turizm sohasiga eng jiddiy zarba berdi.

2020 yil yakunlarini sarhisob qilar ekan, BMT Jahon sayyoqlik tashkiloti (UNWTO) jahon turizmi 30 yil orqaga, 1990 yil darajasiga qaytganligini tan oldi.. Koronavirus pandemiyasidan keyin turizm industriyasi va turistik almashinuvni tiklash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berdi ⁴. 2021-yil 28-noyabr kuni Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n beshinch sammitida Prezident tomonidan Pandemiyadan keyingi davrda xavfsiz turizmni rivojlantirish bo'yicha Mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish taklifi ilgari surildi. (2022 yil,Buxoro shahrida). Dasturda ziyorat turizmi va boshqa turistik mahsulotlarni rivojlantirish, havo transporti geografiyasini kengaytirish, turizm infratuzilmasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi .

Xulosa. Albatta, cheklovlar bosqichma-bosqich olib tashlanganidan keyin turizm sanoati tiklana boshlaydi. Shu sababli, pandemiyadan keyin ham, uning rivojlanishi va turizm salohiyatini rag'batlantirish uchun qanday vositalar mavjudligini tushunish muhimdir. Bu turizm va uning sayyoqlik salohiyatini yanada rivojlantirish uchun pandemiya oqibatlarini boshqarishga tizimli yondashuvni ishlab chiqish uchun zarur. Turistik oqimlarni boshqarish va fuqarolarning xavfsiz faoliyatini rag'batlantirish uchun sanoat ishtirokchilari uchun qanday vositalar mavjudligini tushunish muhimdir. Shu munosabat bilan, pandemiya natijasida turizm sohasini yanada rivojlantirish va muammolarga samarali javob berish qobiliyati ustuvor vazifa bo'lib, ularni hal etish yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. I.S.Tuxliyev,R.Hayitboyev,B.Sh.Safarov,G.R.Tursunov „Turizm asoslari”.T.2014
2. Turizm istiqbollari. // O'zbekiston iqtisodiy ahborotnomasi № 1. 2014. 11.b

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqi. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n beshinch sammitida. 2021 yil 28-noyabr, Ashxobod

3. Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Эштоев А. Рақобатдош кадрлар сайёхлик ривожи учун нега зарур “Янги Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газетаси. 2023 йил 14 ноябрь, 236-сон Б.5
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqi. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n beshinchi sammitida. 2021 yil 28-noyabr, Ashxobod

